



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SO‘ZBOSHI

Bugun o‘zbek tilining davlat tili maqomini kasb etganiga 35 yil to‘ldi. Ushbu muddat davr nuqtayi nazaridan qisqa vaqtни tashkil etsa-da, yurtimizda bu sohada keng ko‘lamli, ta‘bir joiz bo‘lsa, olamshumul ishlar amalga oshirildi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 4-oktabrida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror ona tilimizning istiqboli va taraqqiyotini tamomila yangi bosqichga olib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aynan o‘sha yili 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining ilk satrlarida barchamizni ruhlantiruvchi quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: “Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir”.

2020-yilning 10-aprelida esa O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tiborning yana bir yuksak namunasi bo‘ldi.

Yangidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ayni davrdan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish borasidagi islohotlar amalga oshirila boshlanishiga keng ko‘lam va tus berdi. Xususan, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi til siyosati borasida amalga oshiriladigan ishlarning kelgusi taraqqiyotini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi. Bugungi kunda Markaz va uning 13 ta oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan hududiy bo‘linmalari Toshkent shahri, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritmoqda.

O‘tgan davr davomida Markaz mamlakatimizda davlat tili siyosatini ta‘minlovchi mustaqil tashkilot sifatida shakllandi, o‘z faoliyatini asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘ydi. Albatta, yangi tashkilotning birdaniga oyoqqa turib ketishi, ish faoliyatini bir maromga solish qiyin masala. Buning uchun vaqt, qolaversa, juda katta mehnat talab qilinadi.

TURKIY TILLARDA JINSNING MORFOLOGIK USULDA IFODALANISHI

Hamid YODGOROV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada turki tillarda jinsning morfologik usulda ifodalanishi xususida fikr yuritiladi, jumladan, - **g'ay** affiksining jins ifodalashda tutgan o'zni ko'rsatib berilgan.

Tildagi so'zlar jins nuqtayi nazaridan farqlanar ekan, ularni noto'g'ri qo'llashni ijobiy hol, deb bo'lmaydi. So'zni noo'rin yoki noto'g'ri qo'llash axborot oluvchini chalg'itadi, yanglish xulosalarga olib keladi. Shu bilan birga, muloqotga kiruvchilar o'rtasida salbiy oqibatlarining ro'y berishiga xizmat qiladi.

Turkiy tillarda jins tushunchasining ifodalanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buni qadimgi turkiy, eski turkiy til materiallari misolida ko'rish mumkin. Nafaqat o'zbek tilida, balki dunyoning barcha tillarida jins tushunchasi lisoniy ifodaetiladi. Faqat ularning ifodalanish usullarid hamda ushbu usullarning u yoki bu tilda qay darajada aks etishida farqlanishlar mavjud, xolos.

Kalit so'zlar: morfologik usul, affiks, so'z yasovchi, jins, ayol, erkak, quda, qudag'ay, dialekt, gender, lingvogenderologiya, qarindosh tillar.

Expression of Gender in Turkish Languages By Morphological Method

Abstract

This article reflects on the morphological representation of gender in Turkic languages, including the role of the - gay affix in gender representation.

Since words in a language differ from the point of view of gender, it cannot be said that it is positive to use them incorrectly. Inappropriate or incorrect use of the word distracts the information recipient, leads to erroneous conclusions. At the same time, it serves for the occurrence of negative consequences between those who enter into communication.

The expression of the concept of gender in Turkic languages goes back to the distant past. This can be seen on the example of old Turkic, old Turkic language materials. Not only in Uzbek, but in all languages of the world, the concept of gender is lyrically expressed. There are only differences in the ways of their expression and to what extent these methods are reflected in one language or another.

Keywords: morphological method, affix, word-forming, gender, female, male, in-law, in-law, dialect, gender, linguogenderology, related languages.

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Sirdaryo viloyati hududiy bo'linmasi rahbari, hamid.yodgorov@mail.ru

Tilshunoslikda gender parametrlarining qo'llanilishini tadqiq etish tilshunoslikning ayol yoki erkaklarga xos konstruktiv tamoyillarini o'rganishda ham muhim ekanligi o'z isbotini topdi. Lingvistikada genderologik tadqiqotlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad, ayollar va erkaklar nutqiga xos bo'lgan, shuningdek, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqelangan yozma yoki og'zaki matnlarni farqlash ko'rinishidagi "lisoniy asimmetriya" hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir. Og'zaki so'zlashuv nutqidan tortib, yozma matnlargacha turli tarzdagi o'ziga xosliklar mavjuddir. Matnlarning tuzilishi tekshirilganda, ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayol yoki erkaklar nutqidagi, ularning lisoniy faoliyatidagi individual xususiyatlarni aniqlash, bu borada samarali tahlil va tadqiq ishlarini olib borish talab etiladi.

Mutaxassislar haqli ravishda ta'kidlaganidek, istalgan turdagi matn genderologiya nuqtayi nazaridan o'rganilganda, muallif tomonidan amalga oshiriladigan til birliklari tanlovining sotsial, etnomadaniyat sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Tilshunoslikda an'anaviy tahlil usullarida kuzatishlar olib borilishi bilan birgalikda, uni sotsiologiya, psixologiya hamda boshqa fanlar bilan bog'lovchi yangi tahlil usullariga qiziqish kuchaymoqda. Bu tahlil usullari bilan bog'liq tilshunoslikda yangi zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ana shunday yo'nalishlardan biri – lingvogenderologiyadir. Bu faning tadqiq manbayi- tilning gender xususiyatlarini o'rganish bo'lib, bunda ikkita masala: ayollar va erkaklar nutqining tafovutlari hamda o'ziga xos xususiyatlari; til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklariga e'tibor qaratiladi.

Jins tushunchasi xususida gap keta ekan, tilshunos F.Musayevaning bu haqdagi fikriga e'tiborimizni qaratamiz:

"Dunyoda jins u yoki bu tarzda lisoniy ifoda etilmagan birorta til mavjud emas... Tilda ma'lum bir nominal klassifikatsiyaning mavjudligi yoki uning mavjud emasligi ushbu tilning tirik mavjudodlar jinsini ifodalash imkoniyatiga aslo ta'sir ko'rsatmaydi va turk, mo'g'il va boshqa qator tillar kabi hech qanday nominal klassifikatsiyaga ega bo'lmagan tillar jinsni farqlashda ikki yoki uch jinsli tillardan sira qolishmaydi". Bundan xulosa chiqadiki, biologik jins dunyoning barcha tillarida ifoda etiladi. Faqat ularning ifodalanish usullarida hamda ushbu usullarning u yoki bu tilda qay darajada aks etishida farqlanishlar mavjud, xolos (Musayeva, 2011, 62-64-b.).

Turkiy tillarda jins ifodalanishining grammatik, sintaktik va leksik usullari qayd etiladi. Ayrim o'rinlarda jinsni ifodalashda bu usullarning qorishiq shakllarini ham ko'rish mumkin.

Biz quyida turkiy tillarda jinsning morfologik usulda ifodalanishi xususida fikr yuritamiz.

O'zbek tilining lug'at boyligida "*quda*", "*qudag'ay*" leksemalari mavjud bo'lib, ular tilda qarindoshlikni ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki leksemaga "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2023) da shunday izoh berilgan: 1.Quda – kuyov va kelinning ota-onalari bir-biriga nisbatan (E, bo'lmag'ur gapni qo'ying, quda!-deb g'udrandi otam. P.Tursun. O'qituvchi); 2.Qudag'ay – xotin quda (Qiz bilan yigitni ko'rgan qudag'aylar gap-so'z chuvalmasligi uchun tez orada unashib qo'yishga erlarini qistay boshladilar. H.No'monov, A.Shorahmedov. Ota).

Mazkur leksemalarning izohidan ma'lum bo'lmoqdaki, erkak jinsiga nisbatan "*quda*", ayollar jinsiga nisbatan "*qudag'ay*" terminlari ishlatib kelinmoqda. Ushbu fikrimizni lug'at maqolasidagi quyidagi izoh ham tasdiqlaydi: Quda-qudag'ay- erkak va xotin quda; erkak va xotin qudalar; quda - andalar (Oyjamol ertasiga Barchinning qoshiga bordi. Quda-qudag'ay bo'lib, bir-birini juda izzat qilib qoldi. G'.G'ulom. Yodgor.)

Aytish mumkinki, "*quda*" leksemasi tub, "*qudag'ay*" leksemasi yasama, uning tarkibida –g'ay so'z yasovchi affiksi ishtirok etmoqda. Mazkur affiks yangi so'z hosil qilish bilan birga, jinsni ifodalashga ham xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda tasdiq ma'nosida bir manbaga murojaat etamiz. Tilshunos B.Vladimirsev "**Следы грамматического рода в монгольском языке**" nomli maqolasida boshqa affikslar qatorida –**xan** va –**guy** affikslariga to'xtalib, mo'g'ul tilida ularning so'z yasovchi affikslar ekanligini, shu bilan birga, ayollar jinsini ifodalashga xizmat qilishini ta'kidlaydi, shu joyda quyidagi misollarni keltiradi: no'yan-no'yon (knyaz, janob), noyaxan (yosh qiz); xuda – quda (erkaklarga nisbatan) –xudaguy (ayollarga nisbatan) (Владимирцев, 1925, str.31-34).

Xuddi shunday fikrni qozoq tilshunosi Sh.Saro'bayevning "K voprosu o mongolsko-kazaxskix yazo'kovo'x svyazyax" nomli maqolasida ham uchratish mumkin.U yozadi: qozoq tilida so'z yasovchi –g'i, g'arbiy dialektlarda –g'ay affikslari mavjud, masalan: *qudag'o*, g'arbiy dialektlarda *qudag'ay*. Mo'g'ul tilida qozoq tilidagi –g'i/g'ay (*qudag'o*// *qudag'ay*) affikslariga mos ravishda –gi/guy (xudagi//xudaguy) affikslari saqlanib qolgan (Saro'bayev, 1960, str.55-56).

Tilshunos Sh.Saro'bayev o'z maqolasida qozoq va mo'g'ul tillarining o'xshashligi, umumiyligi faqat leksik birliklarda emas, balki mazkur tillarning grammatik qurilishida ham juda ko'plab o'rinlarda mushtaraklik kasb etishini qayd etadi.

Muallif yana shuni yozadiki: "Qozoq-mo'g'ul tillarining munosabatlari masalasi mo'g'ul-turk tillari aloqalarining bir qismi sifatida qaralishi kerak".

Shuni aytish mumkinki, –g'ay so'z yasovchi affiksi turkiy va mo'g'ul tillari uchun umumiy bo'lib, ayol jinsini ifodalashga xizmat qilar ekan.

Turk – mo‘g‘ul tillarining qarindoshligi haqida gapirganda, biz asosiy e‘tiborni bu tillarning umumiy, mos grammatik kategoriyalariga qaratishimiz lozim bo‘ladi.

Rus tilshunosi A.Smirnitskiy affikslar haqida gapirib, shunday deydi: “Genetik qarindosh grammatik affikslar odatda qarindoshlikning asosi bo‘ladi, shuning uchun ular tillarning qarindoshligini asoslashda eng asosiy dalil sifatida qaraladi” (Smirnitskiy, 1955. str. 48).

Ayni haqiqatni Uzoq Sharqda yashovchi turkiy xalqlar tilida ham -g‘ay affiksi jinsni ifodalashga xizmat qilishi bilan ham izohlash mumkin. Jumladan, eveneklar tilida *kodogoy*, yoqut tilida *xodojoy* terminlari yigit va qizning onalari (bir-biriga nisbatan) ishlatiladi (Romanova, Mo‘reyeva, Barashkov, 1975, str.102).

Yuqoridagi faktlardan ma‘lum bo‘ladiki, -g‘ay affiksi (qipchoq dialektlarida -g‘iy shaklida talaffuz qilinadi: qudag‘iy) so‘z yasovchi bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida kammahsul hisoblanadi, shu bilan birga, jinsni ifodalovchi affiks sifatida qaraladi.

O‘zbek tilida gender jihatdan o‘ziga xos ma‘noga ega leksik va grammatik birliklarning qo‘llanilishi ancha uzoq tarixga borib taqaladi. O‘zbek tilidagi gender mazmundagi vositalarni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ulardagi xususiy va mushtarak xususiyatlarni aniqlash gender tilshunosligi uchun amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

Gender tushunchasi erkak va ayol o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to‘liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor va o‘ziga xos stereotiplarda ifodalanadi.

Inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida gilar bilan muomalasi, nutqi, va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o‘ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo‘ladi. Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, ilmiy adabiyotda qo‘llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo‘lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining “qat’iy ilmiy terminologiya”ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda “qat’iy ilmiy terminologiya” tushunchasini biron-bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo‘lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi (Danilenko, 1977, 21-23).

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg‘in tus oldi.

Asrimizning boshlaridan O‘zbekistonda gender tilshunosligining alohida ilmiy soha sifatida shakllanishi va rivojlanishi ahamiyatga molik.

Xulosa qilib aytganda, fonetika, leksika va grammatika nuqtayi nazaridan gender muammolarini o‘rganish jarayonida tilshunoslar jamiyatda ayollar va erkaklar bajarayotgan funksiyalar xususida tasavvur va tushunchalar o‘zgarganligini hisobga olgan holda nutqiy va tilga oid turlanishni, til va nutqning boshqa shaklga kirishini aniqlash, qayd etish va tahlil qilishga alohida e’tibor qaratishlari lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Musayeva F. (2011). *O‘zbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli* // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. To‘plam.

Владимирцев Б.Я. (1925). *Следы грамматического рода в монгольском языке*. Доклады Российск. Акад.наук. –Л.

Даниленко В.П. (1977). *Русская терминология*. Москва.

Романова А., Мыреева А., Барашков П., *Взаимовлияние эвенкийского и якутского языков*. Москва.

Сарыбаев Ш.К. (1960) *К вопросу о монгольско-казахских языковых связях. Қазақ тілі тарихы мен диалектологиясының маселелері. 2-шығуы*. Алматы.

Смирницкий А. (1955) *Сравнительно-исторический метод и определение языкового родства*. Москва.